ILMIY AXBOROT

UDK:42:378:371.3 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a158**

TEXNIKA OLIY O‘QUV YURTLARIDA CHET TILI DARSLARINI TASHKILLASHTIRISHDA O‘G‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI

МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОГО ПРИМЕНЕНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ

METHODS OF EFFECTIVE USING OF SPEAKING COMPETENCE IN THE ORGANIZATION OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE IN TECHNICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna[1]

[1]Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna − Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, Katta o‘qituvchi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tilini o‘qitish va o‘rganishga bo‘lgan talabga hamda talabalarda yangi bilim va munosabatlarni kuzatish har bir chet tili o‘qituvchisi va har bir o‘qituvchining vazifasi bo‘lib, talabalarga chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi nutq kompetensiyasi darajasiga mos keladigan asosiy nutq tuzilmalarini egallashdir. Kommunikativ kompetensiyani o‘qitish talabalarning haqiqiy ehtiyojlari va qiziqishlariga asosiga bag‘ishlangan.

Аннотация

Статья посвящена спросу на преподавание и самообразование. Мониторинг новых знаний и взаимоотношений у учащихся - задача каждого преподавателя иностранного языка и каждой учительницы. Основной целью обучения студентов иностранному языку является овладение базовыми речевыми структурами, соответствующими уровню речевой компетенции. Преподавание коммуникативной компетенции основано на темах, которые отвечают реальным потребностям и интересам учащихся.

Abstract

The article is devoted to the demand for teaching and learning. Monitoring new knowledge and relationships in students is the task of every foreign language teacher and every teacher. The main goal of teaching a foreign language to students is to acquire basic speech structures corresponding to the level of speech competence. Teaching communicative competence is based on topics that meet the real needs and interests of students.

Kalit so‘zlar: *talab, o‘qitish, o‘sish, mas'uliyat, munosabat, vakolat, ehtiyojlar, maqsad, muloqot, rivojlanish, faoliyat.*

Ключевые слова: *спрос, обучение, рост, ответственность, отношение, авторитет, потребности, цель, общение, развитие, активность*

Key words: *demand, teaching, growing, responsibility, attitude, competence, needs, goal, communicate, development, activity*

KIRISH

Talabalarga chet tilini o‘rgatishning asosiy maqsadi CEFR kompetensiyasi darajasiga mos keladigan asosiy nutq tuzilmalarini egallashdir. Nutqqa o‘rgatish talabalarning real ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beradigan mavzularga asoslanadi.[1] Talabalarda o‘g‘zaki muloqotni yengillashtirish uchun motivatsiya, maqsadga muvofiqlik, faoliyat, shaxsning shaxsiyati va aqliy faoliyati bilan bog‘liqligi, evristika, mustaqillik, sur’at va vaziyat kabi ushbu turdagi nutq faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Agar muloqotning maqsad- vazifalari mavjud bo‘lsa, muloqot ishtirokchilarining xarakterli xususiyatlari, ularning yoshi, rivojlanish darajasi hisobga olinsa, har qanday nutqiy vaziyat doirasida muloqot harakati, albatta, amalga oshadi.

Ma’lumki, tafakkurning ifodasi, xalqlar o‘rtasidagi aloqa, ma’naviy va boshqa muloqotlar til orqali namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi darsni tashkillashtirishda va ta’lim samaradorligini oshirishda o‘quv materiali hususiyatlariga, ta’lim usullariga va va o‘quv imkoniyatlariga e’tibor qaratishi lozim. Bu esa o‘z navbatida dars davomida turli xil rolli o‘yinlar va pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy qilishni taqozo qiladi va chet tili o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida o‘z aksini topishi chet tili o‘qitish saviyasini o‘stiradi.

Har bir chet tili o‘qituvchisi yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarini shakllantirish hislatlariga ega bo‘lishi kerak. U o‘z faoliyatida chet tilini chuqur bilishi, iqtidorli , zamonaviy , ilmiy va madaniy taraqqiyotning chuqur tushuna bilishi ,

dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini keng nuqtai nazardan anglay olishi va kompyuter hamda internet vositalaridan ta'lim jarayonida foydalana olishi, hamda ularni o'gzaki nutqda keng foydalana olishi lozim.

Ko'pchilik chet tili o'qituvchilari maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitishda o'gzaki nutq ko'nikmalarni rivojlantirishda darslarida "talabalarning sustligi" muammosiga duch keladilar. Buning oldini olish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv vaziyatini shunday o'zgartirishni o'qituvchi bilish jarayonida diqqatli va manfaatdor suhbatdoshga aylanadi. Kommunikativ metod ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullaridan biri sifatida o'qituvchining nafaqat axborot tashuvchi, balki kuzatuvchi va maslahatchi bo'lishini taminlashga yordam beradi. O'qituvchining vazifasi talabalar muloqotini osonlashtiradigan ta'limiy ikki tillilik vaziyatlarini yaratishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalar og'zaki nutqini faollashtirishning eng yaxshi metodlari o'zaro ta'sir metodlari, yani interfaol metodlardan bo'lib, interfaol ta'lim bilish usulidir, u faqat talabalarning birgalikdagi faoliyati shartida amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim talabalarning o'zaro munosabatlari va ularning psixologiyasiga asoslangan tajriba sohasi bo'lgan o'quv muhitiga asoslanadi. Bundan kelib chiqadiki, bu usullar ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro munosabatlarini o'z ichiga oladi, bu yerda o'qituvchi va ishtirokchi bir xil jamoaning bir qismi bo'lib, ular bir xil maqsadga erishish uchun ishlaydi. Talabalarning ta'lim olishdagi faoliyatida yetakchi soha bu o'quv jarayoni hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda, kasbiy shakllanish jarayonining xarakterli xususiyati ta'limga, bilim olishga qiziqishning yuqoriligi bo'lib hisoblanadi. Aynan mana shu qiziqish kasbiy malakaviy shakllanishning o'ziga xos xarakterini ifodalaydi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limda ko'p madaniyatli shaxsini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu ularning chet tili haqida ma'lum miqdordagi bilimlarni egallashini, nafaqat tushunish balki unda erkin muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. O. A. Biryukova va D. V. Semenovalar ta'kidlaganidek, zamonaviy metodologiya fanida monolog va dialogik shakllarda o'z og'zaki nutqini yaratish qobiliyatini shakllantirish chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi va chet tili tushunchasi orqali ifodalanadi. Ma'lumki, kommunikativ kompetensiya juda murakkab ko'p komponentli tuzilishga egadir.[2]

Shuni ta'kidlash lozimki, interfaol o'zaro ta'sirni o'rgatish ingliz tili darslarida hayotdan olingan o'quv materiallaridan foydalanishni talab qiladi, bu esa to'g'ri tashkil etilgan sharoitda o'rganilayotgan tilda tabiiy muloqotni ta'minlaydi. Shuningdek bo'lajak muhandislarni tayyorlashda ularga sohaga oid terminologiyani rasmlar, vizualitsiyatsiya hamda qo'l bilan ushlab ko'rish orqali tasvirlab nutqni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nutq kompetensiya tushunchasi chet tillarini o'qitishga kommunikativ yondashuv asosida yotadigan nazariyalardan biridir.[3] Ushbu tushunchani kommunikativ kompetentlik-ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, ta'lim oluvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish. Kompetentlik (ingl. "competence"-"qobiliyat")-faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish quyidagicha talqin etish mumkin[4]

Bo'lajak texnolog muhandislar kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari, muloqot qilishda uchta o'zaro bog'liq kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi o'qituvchining kasbiy kommunikativ kompetentliligi, kommunikativ o'zini o'zi rijojlantirish kabi muhim xususiyatlarni egallashdan iboratdir.

Interfaol o'zaro ta'sir vaziyatlarini yaratish uchun talabalar har qanday vaziyatda o'zlarini tasavvur qilishlari kerak bo'lgan vazifalar bilan ishlashni cheklashni istisno qilish kerak. Chet tilida munosabatlar shartlari nutq, qo'shimcha kasbiy matnlar o'rganishning ko'plab turlarini bilish davr talabi ekanligini ko'rsatib beradi.[5] Boshqa tillar mohiyatini kamsitmagan holda, ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilishda, til nutqini tushunish, mutolaa qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo'yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o'qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislar, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi va aniqlanadi. Shuningdek ushbu metod va texnologiyalar til o'rganuvchining chet tilda, jumladan, ingliz tilida fikrini erkin bayon qilish, izlanish va til ko'nikmalarini shakllantirish xorijiy adabiyotlarni mutola qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi

O‘quv jarayoniga yo‘naltirilgan qo‘shimcha matn dasturlari qo‘llanilishi ingliz tili o‘qitish masalasini munosib ravishda hal etishga yaxshi imkon beruvchi metodik yondashuvlarning biridir. O‘qituvchi bilan talabaning o‘zaro ta’siri natijasida talaba ma’lum bilimlarni shunchaki o‘zlashtirib qolmay, bir vaqtning o‘zida yana bilish va hatti-harakatlar qilishning yangi tamoyillarini va metodlarini o‘zlashtirib oladi va rivojlanishiga zamin yaratadi.[6]

Bu kabi yondashuvda kompetentsiya bir tizimga birlashtirilgan bilimlar, malakalar va shaxsiy sifatlarni kommunikativ xatti-harakat samaradorligi va optimal rentabelligi bilan bevosita aloqadorlikda safarbar qilishga oid oliy integral qobiliyat sifatida qaraladi

Kommunikativ yondashuv maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tiliga asoslangan til darslarida ustunlik qiladi va bu esa o‘z navbatida talabalar uchun o‘g‘zaki muloqotning muhim omil hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shunday qilib, og‘zaki nutq kompetensiyasi eng ko‘p amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan muhim xabar hamda ma’lumotlarni boshqalarga yetkazishning umumiy usuli va samarali muloqot qilish qobiliyati chet tilida jiddiy qabul qilinishi kerak bo‘lgan asosiy talab hisoblanadi. O‘qituvchilar chet tili darslarini tashkillashtirishda mavzuga oid so‘rovlar qilish, o‘tgan voqealar haqida suhbatlashish, ona tilida so‘zlashuvchilarni tinglash yoki tasvirlarni tasvirlash bilan o‘tkazadilar. Bularning barchasi haqiqiy materiallardan foydalangan holda barcha til darajalarida mazmunli aloqa o‘rnatish maqsadiga asoslanadi.

XULOSA

Shuni ta’kidlash lozimki, kommunikativ yondashuvni yangi tillarni o‘rganishda eng yaxshi o‘qitish usullaridan biri bo‘lib, maqsadli tilda muloqot qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan talabalarni chet tilida og‘zaki nutq kompetensiyasinni shakllantirish va ulani turli xil real vaziyatlarga tayyorlash muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil., 6-son, 70-modda. (of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "Strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan on" Decree No. PF-4947. Laws of the Republic of Uzbekistan collection, 2017, No. 6, Article 70.)

2.Кулневич С.В. Новая педагогика: Учебное пособие для студентов пед.вузов. – Воронеж, 1992. – 134с. (Kulnevich S.V. New Pedagogy: Textbook for students of pedagogical universities. - Voronezh, 1992. - 134 p.)

3. Leung, Constant (2005). "Convivial communication: recontextualizing communicative competence". International Journal of Applied Linguistics. 43 44.

4.Yusupalieva Sh, Sattorova S Indoneziya International journal of discoveries and innovations in applied sciences The importance of speaking in EFL classes Volume 1 Issue 4, 2021 P.63-65

5. Bygate, M. (1987). Speaking. New York: Oxford University Press, P 57-59

6. Aldohon, H. I. (2014). English for Specific Purposes (ESP) for Jordanian workplace: Needs and problems. International Education Studies, 7(11), 56-67